


29. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish




Yondosh mavzu:
Valyutalar kursining o'zgarishi

10, 100 ga ko'paytirish,
grafik ma'lumotlar



1. Dollar kursi oxirgi haftada qanday o'zgarganiga e'tibor bering.



- 24-fevralda dollar kursi qanday edi? 3-martda-chi? 9-martda-chi?
- Qaysi sanada dollar kursi 10 900 so'mga teng bo'ldi?
- 24-fevraldan 9-martgacha dollar kursi necha so'mga ortdi?



2. Bir sutkada bir yevroning narxi 145 so'mga pasaydi. Agar kecha 1 yevro 12 310 so'm bo'lgan bo'lsa, bugungi kurs qanday bo'ldi?



3. Hisoblang.

- $2\,394 \cdot 5$
- $(3\,000 + 400 + 50 + 6) \cdot 7$
- $67\,203 \cdot 4$
- $(80\,000 + 2\,000 + 300 + 30) \cdot 9$

29. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish



4. O'tgan oyning boshida bir dollar 10 540 so'm edi. Hozir bir dollar 10 970 so'mga teng. Agar internet-do'konda buyurtma berilgan ko'ylakning narxi 9 dollar bo'lsa, narx necha so'mga o'zgaradi?



5. Sonlarni o'qing. Ularni o'sish tartibida yozing.

Millionlar			Minglar			Birliklar			Millionlar			Minglar			Birliklar			Millionlar			Minglar			Birliklar					
Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik	Yuzlik	O'nlik	Biriklik			
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■
■	■								■	■		■	■	■	■	■	■	■	■		■	■	■	■	■	■	■	■	■



6. Bir yevroda 100 yevrosent bor. Hisoblang.
 3 yevroda, 80 yevroda, 1 500 yevroda qancha yevrosent bor?
 Agar 2 300 yevrosent almashtirilsa, qancha yevro bo'ladi?
 76 000 yevrosent-chi?



7. Santimetrlarda ifodalang va hisoblang.
 $6 \text{ m } 3 \text{ dm } 5 \text{ cm} + 8 \text{ m } 5 \text{ dm } 7 \text{ cm} - 2 \text{ m } 4 \text{ dm } 9 \text{ cm}$
 $7 \text{ m } 6 \text{ dm } 2 \text{ cm} + 3 \text{ m } 4 \text{ dm } 2 \text{ cm} - 45 \text{ dm } 8 \text{ cm}$
 $6 \text{ m } 5 \text{ cm} - 2 \text{ m } 3 \text{ dm } 7 \text{ cm}$
 $7 \text{ m } 34 \text{ cm} - 52 \text{ dm } 6 \text{ cm}$



8. Tenglamalarni yeching.
 $(x - 3 \text{ dm } 8 \text{ cm}) \cdot 3 = 2 \text{ dm } 7 \text{ cm}$
 $(y + 8 \text{ cm } 2 \text{ mm}) : 4 = 6 \text{ cm } 4 \text{ mm}$

29. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish



9. 1 dollar = 100 sent. Bu yig'indilarni ular qiymatining o'sishi tartibida qo'yib chiqing. Eng katta va eng kichik miqdor o'rtasidagi farq qancha?

6 dollar
20 sent

12 dollar
50 sent

11 dollar
120 sent

12 500
sent

6 020
sent



10. Amallarning to'g'ri tartibini ko'rsatib, misollarni yeching. Qadimda mamlakatimiz hududida ishlatilgan kumush tanga qanday nomlanganini toping.

$$98\ 746 - (56\ 938 + 3\ 272 \cdot 5) + 9 \cdot 7\ 599 \cdot 3$$

B 245 781

A 25 448

M 230 621

R 68 391

D 16 360

I 73 298

K 74 371

H 205 173



11. Quyidagi sonlar yozuvida nechta nol bo'ladi:

Million qo'shuv ming qo'shuv bir qo'shuv million qo'shuv ming qo'shuv ikki qo'shuv million qo'shuv ming qo'shuv uch qo'shuv million qo'shuv ming qo'shuv to'rt?



12. Aziza so'm va dollarda pul yig'di. Hozirda 356 ming so'm qog'oz puli, 68 ming so'm tangasi bor. Bundan tashqari, uning jamg'armasida yana 8 dollar bor. Ayni paytda dollar kursi 11 095 so'm bo'lsa, Aziza so'm hisobida qancha pul yig'di?



13. Hisoblang.

a) $56\ 801 \cdot 9$

b) $345\ 567 \cdot 2$

d) $203\ 804 \cdot 5$

e) $278\ 542 \cdot 3$

f) $604\ 850 \cdot 6$

g) $1\ 780\ 434 \cdot 7$